

BUYUK IMPERIYANING SO'NGGI BUYUK HUKMDORI

Toshmatova Xolida Sayfiyevna

Samarqand viloyati Bulung'ur tuman

*2-son politexnikumi o'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari*

Annotatsiya. Mazkur maqola Yaqin Sharq mamlakatlarining ilk sivilizatsiyasi bo'lgan Mesopotamiya davlatining yuksak taraqqiy etgan Bobil va uning so'nggi hukmdori Nabonid faoliyati, islohotlari diniy e'tiqodlari haqida ma'lumot beradi.

Kirish so'zlar: Shamash, Sina, Ea, Shummer, Akkad, istilo, islohot, Dajla, Frot, oromiy, ibodatxona, "Xudolar darvozasi", Tigr, Uruk, Umma, Lagash, Ur, Diala, elamiy, katapult, Harbiy hiyla.

Nabonid – Bobilning so'nggi podshosi (miloddan avvalgi 556—539-yillarda hukmronlik qilgan). Oromiylarlar. Nabonid Eron bilan kurashish uchun G'arbiy Osiyoning barcha oromiy qabilalarini yagona davlatga birlashtirishga harakat qilgan. Arabistondagi Taymu va boshqa viloyatlarni tobe ettirish uchun 10 yil kurashgan, o'g'li Valtasarni Bobil noibi qilib tayinlagan. Diniy islohotlar o'tkazgan, Oy ma'budi Sinaga homiylik qilgan. 539-yil kuzida Bobil forslar tomonidan bosib olingan. Nabonid asir olingan.[1]555-yildagi davlat to'ntarishidan keyin Bobil taxtiga o'tkazilgan Nabonid Navuxodonosor II ning ishlarini ko'lidan kelganicha davom qildirmoqchi bo'lgan, shu sababdan xam u Navuxodonosorni o'z yozuvlarida ko'proq eslaydi va uni o'z homiysi deb juda izzat-hurmat bilan tilga oladi. Nabonid 17 yil davom etgan (eramizdan avvalgi 555-538-yillar) podsholigi davrida mamlakatning bir butunligini saqlash uchun qattiq kurash olib borgan. Nabonid podsholigining dastlabki paytlarida shimoliy Suriyada ko'tarilgan qo'zgolonni bostirgan va Xamatga, Amurru mamlakatiga qo'shin tortib borib, to Edomning janubigacha yetgan. Ammo Bobil uchun xavfning uyasi bu yerda emas edi. Suriya bilan falastin bo'lsa bostirilgan va ular kuchsizlanib qolgan Misrdan yordam kuta olmas edilar. Tirni Xiram III idora qilar edi, uni Nabonidning uzi podsho qilib ko'targan edi. Bobil uchun ancha mushkul ahvol Mesopotamiyaning shimoliy qismida yuzaga kelgan. Midiya podshosi Astiag (Ishtuvegu) Shimoliy Mesopotamiyaga qarab yurib, Xarran o'lkasiga xujum qilgan. Nabonid uz yozuvida xabar qilishicha, u „ummanmandlarga>> (<<miliyaliklarga“) qarshi chiqqan, lekin midiyaliklarni Anshana podshosi Kayxisrov tor-mor keltirgan. Midiya podsholigining yemirilayotganini va Eronning yuksalayotganini ko'rgan Nabonid uzining shimoli-g'arbiy chegaralarini mustaxkamlashga qaror bergan bo'lishi va shu sababli u, o'zining so'zicha, Xarranda midiyaliklarning tajovuzlaridan qattiq zararlangan muqaddas joylarni tiklash uchun shu yerga alohida e'tibor bergan bo'lishi

juda mumkin. Eronning albatta bostirib kelish xavfini oldindan sezgan Nabonid uzoq Arabiston bilan o'z aloqalarini mustahkamlamoqchi bo'lgan va shu maqsadl bilan Teymaga qarorgohiga aylantirib. Chunki Nabonid Teymada uzini bir qadar xavfsizroq his qilardi. Siyosat maydonidagi xavfli vaziyat Bobil podsholigi uchun tobora xavfsizroq his qilardi. Eron podshosi Kayxisrov 550-yilda Midiyani o'ziga buysundirib, Lidiyaga qarshi otlangan, Lidnya podsholigini istilo qilgan va, shunday qilib. Mesopotamiyani sharqdan ham, shimoldan ham o'ziga qarashli yerlar bilan o'rab olgan. Eron podshosining hamma yutuqlari Bobil xronikasida batafsil ko'tatilgan, chunki Eron podshosi endi bevosita Bobilga xavf solmoqda edi. Xronikaning 546-yilga oid bobida, elamiylar (forslar yoki ularning Elamdagi ittifoqchilari bulsa kerak) Akkadga bostirib kirganligi va Elam xokimining Urukka tayinlanganligi aytiladi. Forslar Tigr daryosining sharqida Quyi Zab. Tigr va Diala daryolari urtasidagi Gutium o'lkasini bosib olganlar. Kayxisrov 539-yilda Mesopotamiyaga bostirib kirib, Opis yonida Bobil qo'shinlarini tor-mor keltirgan. 538-yilda Kayxisrov Sipparni ishg'ol kilib, Bobil ostonalariga yaqinlashib kelgan. Nabonidning xudogo'yliigi ham, olimligi ham, butun mamlakatdan Bobilga tashib keltirilgan xudolar haykali ham (Nabonid shu xudolarning haykallarini Bobilga olib kelib, Bobilni qadimgi diniy yodgorliklarning g'oyat katta muzeyiga aylantirgan edi) uni qutqarib qololmagan. Kayxisron 538-yilning kuzida Bobilga kirib, Nabonidni taxtdan chetlashtirgan va Bobiliyani qidratli Eron davlatiga qo'shib olgan. Yangi Bobil podsholigi shu tariqa qulagan va bu bilan markazi Bobil shahri bo'lgan buyuk davlat barpo qilish yo'lidagi so'nggi urinish barbod bo'lgan. Lekin Old Osiyodagi savdoning eng katta markazi sifatida va faqat qadimgi Sharqdagina emas, balki butun qadimgi dunyoda ham madaniy hayotning taraqqiy qilishiga juda katta ta'sir ko'rsatib kelgan madaniy markaz sifatida Bobil, har holda, o'zining katta iqtisodiy va madaniy ahamiyatini birmuncha vaqt saqlab kelgan.

Miloddan avvalgi 626-539-yillarda Mesopotamiya, Falastin va qisman Misrda hukmronlik qilgan davlat. Miloddan avvalgi 626-yilda Bobil shohi Nabopalassarning toj kiyib taxtga o'tirishidan Yangi Bobil imperiyasi davri boshlanadi. Miloddan avvalgi 612-yilda Yangi Ossuriya imperiyasining qulashidan so'ng, Yangi Bobil kuch-qudratga to'la boshlaydi. Bu davlatni Xaldeylar sulolasi boshqargan, shuning uchun ba'zi manbalarda imperiyani Xaldeylar podsholigi deb ham atashgan.

Yangi Bobil podshohligi m.a. VII asrgacha Ossuriya tarkibida edi. Ossuriyaning zaiflashishi natijasida, Bobil tarixda ikkinchi marta yaqin Sharqda hukmronlikni qo'lga olish uchun tiklandi (birinchi marta podsho Xammurappi davrida Bobil ana shunday kuch-qudratga ega edi). Yangi Bobil hukmronligi davri butun Bobilda misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sish va aholi sonining ko'payishi kuzatildi, madaniyat va san'at taraqqiy etdi. Yangi Bobil shohlari hashamatli saroylar, qasrlar, bog'lar va ibodatxonalar qurishda tengsizlikka erishdilar. Bobilda 2000 yil avvalgi Shumer-Akkad madaniyati yuksak ko'rinishi tiklandi.

Imperiya madaniy hayotda o'z nomini podsho Navuxodonosor II tufayli saqlab qolgan. Uning nomi Bibliyada ham kelgan, chunki u m. a. 587-yilda Iyerusalim (Quddus) ni varon etib, yahudiylarni u yerda Bobilga ko'chirgan edi. Natijada, tarix sahifasida yahudiylar uchun Bobil asirligi hisoblangan davr yuzaga keldi (m.a. 587-539-yillar). Yangi Bobil imperiyasi Navuxodonosor II davrida o'zining oltin davrini boshdan kechirdi.

Yangi Bobilning oxirgi podshohi Nabonid davrida oy xudosi Sinning Bobilning homiy xudosi Mardukdan ustun deb e'lon qilinishi xalq va ruhoniylar orasida norozilik keltirib chiqardi. Bu narsa tufayli davlat zaiflashdi, bundan foydalangan forslar shohi Kir II miloddan avvalgi 539-yilda Bobilni bosib oldi. Shundan so'ng, Bobil o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy nufuzini yo'qotdi. Bobil keyingi imperiyalar hukmronligi davrida bir necha marta o'z qudratini tiklashga harakat qilib isyon ko'tarsa-da, bunga erisha olmaydi.

Yangi Ossuriya podshosi Sinsharishkun hamda uning janubdagi noibi qo'mondon Sin-shumu-lishir o'rtasidagi fuqarolar urushi Ossuriyani zaiflashtirdi. Miloddan avvalgi 626-yilda Nabopalassar Bobil va Nippur shaharlariga hujum qilib, egallab oldi[5]. Sinsharishkunning javobi tez va qat'iy bo'ldi, o'sha yilning oktyabr oyiga kelib ossuriyaliklar Nippurni qaytarib olishdi va Uruk shahrida Nabopalassarni qamal qilishdi. Sinsharishkun Bobilni egallay olmadi va Nabopalassar esa Ossuriyaning qamaliga dosh berdi va Ossuriya qo'shinini qaytarishga muvaffaq bo'ldi.

Miloddan avvalgi 626-yilning noyabrida Nabopolassar rasman Bobil shohi sifatida taxtga o'tirdi va bir asrdan ortiq to'g'ridan-to'g'ri Ossuriya hukmronligidan keyin Bobilni mustaqil davlat sifatida tikladi[5]. Miloddan avvalgi 625-yildan 623-yilgacha Bobilning shimolidagi yurishlari va Nabopolassarga qo'shilgan kabi janubiy shaharlaridagi kichik muvaffaqiyatlariga qaramasdan m. a. 623-yilda Sinsharishkun yalpi hujumga o'tib, Nabopalassarni yengdi, ammo shohga qarshi ossuriyaning o'zida norozilik kuchaygani sababli bu yurishni oxirgacha yetkazmadi.

Miloddan avvalgi 615-yil oktyabr-noyabr oylarida Midiya shohi Kiaksar boshchiligidagi qo'shin Ossuriyaga bostirib kirib, Arrafa shahri atrofidagi hududni bosib oldi. Miloddan avvalgi 614-yilning iyul-avgust oylarida midiyaliklar Kalxu va Nineviya shaharlariga hujum qila boshladilar. Keyin ular Ossuriyaning qadimgi siyosiy va diniy markazi Ashshurni qamal qilishdi. Midiyaliklar shaharni egallab, varonaga aylantirdilar. Nabopalassar Ashshurga talon-toroj boshlangandan keyin yetib keldi va Kiaksar bilan uchrashib, Ossuriyaga qarshi shartnoma imzoladi. Miloddan avvalgi 612-yil aprel-may oylarida, Nabopalassar va Kiaksarning birlashgan qo'shini Nineviyaga yurish qildi. O'sha yilning iyun oyidan avgustigacha ular Ossuriya poytaxtini qamal qilishdi va avgust oyida devorlarni buzib, shaharni xarobaga aylantirishdi. Sinsharishkunning vorisi, Ossuriyaning oxirgi shohi Ashshurballit II miloddan avvalgi 609-yilda Harranda mag'lubiyatga uchradi. Ossuriyaning ittifoqchisi

bo'lgan Misr bir necha yil davomida Bobilga qarshi urushni davom ettirdi va miloddan avvalgi 605-yilda Karxemishda Nabopalassarning valiahd shahzodasi Navuxodonosor tomonidan tor-mor etildi.

Miloddan avvalgi 605-yilda Nabopalassar vafotidan keyin o'g'li Navuxodonosor II o'rniga o'tirdi[8]. Navuxodonosor II meros qilib olgan imperiya dunyodagi eng qudratli imperiyalardan biri edi. U Midiya shohi Kiaksarning qizi yoki (ayrim manbalarda nabirasi) Amitisga uylanib, otasining Midiya bilan tuzgan ittifoqini mustahkamladi. Ba'zi manbalarda Qadimgi dunyoning yetti mo'jzasidan biri bo'lgan mashhur Bobil osma bog'lari Navuxodonosor II romonidan rafiqasi Semiramidaga Vatanini eslatib turish uchun bunyod etilgan degan ma'lumotlar bor (bu bog'larning mavjud bo'lgani tarixchilar tomonidan bahsga sabab bo'lgan). Uning 43 yillik hukmronlik davrida Bobil Yaqin Sharqdagi eng qudratli saltanatga aylandi.

Navuxodonosor II Levantga ko'p marotaba harbiy yurish uyushtirib, sobiq Ossuriya imperiyasining O'rtayer dengizi bo'yida joylashgan yerlarini egallaydi. Miloddan avvalgi 587-yilda Quddusni vayron qiladi, Isroil-Yahudiya podsholigiga barham beriladi, yahudiylarning katta qismi Bobilga olib kelinadi, ular uchun Bobil asirligi deb nomlanuvchi davr boshlanadi[8]. O'rta dengiz bo'yidagi Tir shahri Bobil shohiga 13 yil qarshilik ko'rsatadi, shaharning qirg'oqdan 800 m uzoqlikdagi orolda joylashganligi uning qamal qilinishini uzoqqa cho'zadi. Miloddan avvalgi 573-yilda Tir shahri Bobilga vassal bo'ladi. G'alabalr sharafiga u Bobilning atrofini baland devorlar va chiroyli bezatilgan darvozalar bilan o'rab oladi. Ulardan iloha Ishtarga bag'ishlab qurilgan darvoza bugungi kunga qadar saqlangan noyob arxitektura obidasidir.

Navuxodonosor II vafotidan so'ng (m. a. 562-yil), Bobil siyosiy inqirozga uchradi, fitnalar natijasida uning o'g'li o'ldirildi. Fitnalar oqibatida saroy amaldori Nabonid va uning o'g'li Belshazar hokimiyatni qo'lga oldilar. Nabonid davrida imperiyani g'alayonlar qamrab olgan bo'lsa-da, nisbatan barqaror davr bo'ldi. Nabonid ibodatxonalarni qayta ta'mirlatdi, yangi binolar qurdirdi, Kilikiyaga harbiy yurish uyushtirdi. Nabonidning asli kelib chiqishi bobillik emas edi, u sobiq Ossuriyadagi Harran shahridan, Sin xudosiga sig'ingan qavmdan edi. Yangi qirol Sin ilohasining imperiyadagi mavqeyini ko'tarish uchun harakat qildi, Bobilning bosh xudosi Marduk inkor etildi. Bu esa Bobil ruhoniylarining qarshiligiga sabab bo'ldi. Kohinlarning shohdan yuz o'girishi xalqning unga nisbatan ishonchini susaytirdi.

Miloddan avvalgi 553-yilda fors shohi Kir II o'zi avval bo'ysungan Midiya shohi Astiagga qarshi isyon ko'tardi, Astiagdan norozi Midiya qo'shini Kir II ga yordam berdi. Natijada miloddan avvalgi 550-yilda Astiag taxtdan ag'darilib, butun Midiya yerlari Kir II ga bo'ysundirildi. Kir II o'zini hamma forslar, elamiylar va kutiylarga shoh deb e'lon qildi hamda ulardan juda katta qo'shin tuzdi. Miloddan avvalgi 547-yilda Kichik Osiyodagi Lidiya davlatini tor-mor etdi. M. a. 539-yilda esa Bobil yerlariga bostirib kirdi. Nabonidning o'g'li Belshazar boshliq qo'shin Opis jangida tor-

mor etildi. Kir II qo'shinlari Frot daryosini boshqa tomonga burib yuborib, Bobilni zabt etdi. Shu tariqa, Yangi Bobil imperiyasi davri ham nihoyasiga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Tayloqov. Xalq ta'limiga Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish ta'lim sifatini oshirishning omili sifatida. Xalq ta'limi. 2005 yil № 5-soni
2. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi 2-Maxsus son, 1999 yil.
3. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi 2-Maxsus son, 1999 yil 28b.
4. Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi 2-Maxsus son, 1999 yil.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. - T., "Sharq", 1999 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. I qism.- Toshkent, 1998 yil.
6. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. T., 2008.
7. Yusupov F. O'qituvchi individual tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik psixologik jihatlari. Xalq ta'limi №5, 2005 yil
8. Yusupov R.K. Tarixni o'qitish uslubi. Samarqand. Universitet, 2001. 83 b.
9. Abdiyev E. Qadimgi Sharq tarixi. T.: 1984.
10. Boynazarov F. A. Qadimgi dunyo tarixi. T.: 2004.
11. Qadimgi dunyo tarixi. Kuzishin tahriri ostida. II jild, 1974.
12. Ладунин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. «Слово», «Эксмо». - М.: 2004.
13. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. М.: 1982.
14. Оппенгейм А.Л. Древняя Месопотамия портрет погибшей цивилизации. М.: 1980.
15. Rajabov R. R. Qadimgi dunyo tarixi. «Fan va texnologiya», T.: 2009.
16. Рагозина З.А. Древняя Ассирия. М.: 1998.
17. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. "O'zbekiston", T.: 1997.
18. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии М.: 1982.
19. Ю. С. Крушкoл тахрири остида. Qadimgi dunyo тарихи. "Ўқитувчи", T.: 1975.

Foydalanilgan internet saytlari

1. www.academia.edu
1. [https://www.academia.edu/2195169/The Assyrian Army I The Structure](https://www.academia.edu/2195169/The_Assyrian_Army_I_The_Structure)